

MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Gulboyeva Shohista Ismat qizi¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonida uchraydigan dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha samarali yondashuvlar tahlil qilinadi. Mustaqil ta'lim jarayoni talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ilmiy izlanish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Biroq, talabalar mustaqil ish bilan shug'ullanish jarayonida motivatsiya yetishmovchiligi, vaqt ni samarali boshqarish, baholash tizimining shaffofligi va o'qituvchilarining yordami kabi muammolarga duch kelishlari mumkin. Maqolada bu muammolarni hal etishning samarali yo'llari, jumladan, mustaqil ishga bo'lgan qiziqishni oshirish, innovatsion baholash tizimlarini joriy etish, o'quv jarayonini ijodiy faoliyat bilan boyitish, ilmiy va amaliy tanlovlarda ishtirok etishni rag'batlantirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, o'qituvchilarining metodik yordami va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Mustaqil ta'lim, talabalarning mustaqil ishlashi, motivatsiya, innovatsion baholash tizimi, pedagogik texnologiyalar, ilmiy-tadqiqot faoliyati, kredit-modul tizimi, o'quv jarayoni, mustaqil ishning samaradorligi, o'qituvchi yordami.

Kirish.

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalarda, jumladan, ta'lim tizimida ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ta'lim sohasida qabul qilinayotgan yangi qaror va qonunlar mazmun-mohiyati jihatidan zamon talablariga javob beradigan, ilg'or pedagogik yondashuvlarga asoslangan ta'lim tizimini shakllantirishga qaratilgan. Jumladan, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi ham ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlash jarayonini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko'p jihatdan uning ta'lim tizimi qay darajada shakllanganiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlanirish konsepsiysi" doirasida oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan. Ushbu konsepsiyada ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish kabi muhim vazifalar qatorida, talabalar mustaqil ta'lim olishini rivojlanirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Mazkur konsepsiyada mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalar orasida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlanirish, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonini amaliyotga yo'naltirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan. Bugungi kunda talabalar bilimini

¹ "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti tadqiqotchisi
shohistagulboyeva1994@gmail.com



oshirish uchun mustaqil ta'lim tizimini takomillashtirish zarurati ortib bormoqda. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni o'quv yuklamasining muayyan foizi auditoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim o'rtasidagi nisbat asosida belgilangan. Masalan, bakalavriat ta'lim yo'nalişlarida ushbu nisbat 40/60 foizdan 50/50 foizgacha, magistatura mutaxassisliklarida esa 30/70 foizdan 50/50 foizgacha etib belgilanmoqda.

Mazkur o'zgarishlar talabalar o'z ustida ishlashini, bilim va ko'nikmalarini mustaqil ravishda rivojlantirishini talab qiladi. Fanlarning turli jihatlari va ularni o'zlashtirishga oid masalalar aynan mustaqil ta'lim orqali o'rganilishi lozim. Mustaqil ta'lim nafaqat talabalar bilimini chuqurlashtirishga, balki ularning tahliliy fikrlash, tadqiqotchilik va ijodiy yondashuv qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu boisdan, ushbu maqolada mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar tahlil qilinadi. Bundan tashqari, talabalar mustaqil ta'lim olish jarayonida bilimini baholash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda mustaqil o'qish madaniyatini shakllantirish yo'llari ham batafsil yoritiladi.

Asosiy qism. Talabalarning mustaqil ishlashi samaradorligini ta'minlash va ularni bu jarayonga faol jalb etish uchun turli omillar mavjud. Mustaqil ishning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi talabada barqaror qiziqish va motivatsiya mavjudligiga bog'liq. Talabaning o'z ustida ishlashga bo'lgan qiziqishi uning keljakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorgarlik darajasiga ham ta'sir qiladi. Shunday ekan, talabalarni mustaqil ishga qiziqtirish uchun ichki va tashqi omillarni samarali qo'llash zarur.

Birinchidan, Mustaqil ishning foydalilagini anglash. Bunda talabaning bajarayotgan ishi uning o'qish jarayonida real natijalar berishini bilishi juda muhim. Agar talaba mustaqil ishi natijalarining o'quv jarayonida, laboratoriya ishlarida, metodik qo'llanmalarda yoki ilmiy maqolalar tayyorlashda ishlatilishini tushunsa, u ishga nisbatan jiddiyroq yondashadi va mas'uliyat hissi ortadi.

Yechim sifatida quyidagilarni keltirish numkin:

- Talabalarni o'z mustaqil ishlarini amaliy faoliyatga bog'lashga undash;
- Mustaqil ish natijalarini amaliyatda qo'llash imkoniyatlarini ta'minlash;
- O'qituvchilar tomonidan mustaqil ishlarga oid aniq yo'nalişlar va tavsiyalar berish.

Ikkinchidan, talabaning ijodiy faoliyatga jalb etilishi. Ijodiy faoliyatga jalb etish mustaqil ishlashga bo'lgan qiziqishni sezilarli darajada oshiradi. Talaba o'z bilim va malakalarini yangi g'oyalar ishlab chiqish, innovatsion loyihalar yaratish, tadqiqot olib borish orqali mustahkamla, u mustaqil ishga yanada katta mas'uliyat bilan yondashadi.

Ijodiy faoliyat shakllari:

- Kafedralar tomonidan o'tkaziladigan ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etish;
- Talabalar orasida innovatsion va startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash;
- Ilmiy va metodik ishlarda ishtirok etish (maqola yozish, darslik yaratishda yordam berish);
- Badiiy va amaliy san'at sohalarida mustaqil ijod qilish.

Uchinchidan, ilmiy va amaliy tanlovlarda qatnashish. Fan olimpiadalari, ilmiy-tadqiqot ishlar, amaliy ish tanlovlari va boshqa musobaqalar talabaning mustaqil ishlashga bo'lgan intilishlarini



kuchaytiradi. Bunday musobaqalar nafaqat bilim darajasini oshirishga yordam beradi, balki talabalar orasida raqobat muhitini ham shakllantiradi.

Yechim sifatida quyidagilarni keltirish numkin:

- Har bir fanda talabalar ishtirok etishi mumkin bo‘lgan tanlov va olimpiadalar haqida ma’lumot berish;
- Yutuq va natijalarga erishgan talabalarni rag‘batlantirish (sertifikat, stipendiya, maxsus mukofotlar).

To‘rtinchidan, baholash tizimida rag‘batlantiruvchi omillardan foydalanish. Talabalarni mustaqil ishga qiziqtirishning yana bir samarali usuli – baholash tizimida rag‘batlantirish mexanizmlaridan foydalanishdir. Masalan, reyting tizimi, test sinovlari va noan’anaviy imtihon shakllari orqali talabalar mustaqil ishlarni yanada mas’uliyat bilan bajarishiga undaladi.

Bunda samarali bo‘lgan usullar:

- Reyting tizimi – talabalar mustaqil ish natijalariga qarab qo‘srimcha ball olish imkoniyatiga ega bo‘lishi;
- Noan’anaviy imtihon shakllari – an’anaviy test va yozma ishlar o‘rniga taqdimot, loyiha, tadqiqot ishi shaklida topshirish imkoniyatini yaratish;
- Bonus tizimi – a’lo natijalar ko‘rsatgan talabalar maxsus ta’lim grantlari, amaliyot va stajirovkalarga yo‘naltirilishi.

Beshinchidan, Mustaqil ishga ajratilgan vaqt va uning samarali boshqarilishi. Kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgan oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’lim soatlarining ulushi oshib bormoqda. Bakalavriat bosqichida mustaqil ta’lim ulushi 40/60 foizdan 50/50 foizgacha, magistratura bosqichida esa 30/70 foizdan 50/50 foizgacha yetkazilgan. Bu esa talabalarning mustaqil ishslash qobiliyatini rivojlantirishga qo‘srimcha imkoniyat yaratadi.

Shunday bo‘lsa-da, ajratilgan vaqtini to‘g‘ri boshqarish va undan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar talabalar o‘z vaqlarini samarali rejalshtira olmasa, mustaqil ish sifati pasayishi mumkin.

Yechimlar:

- Talabalar uchun mustaqil ta’limni samarali tashkil etish bo‘yicha trening va seminarlar o‘tkazish;
- O‘quv dasturida mustaqil ish shakllarini talabalar uchun qulay formatda ishlab chiqish;
- Talabalarni vaqtini rejalshtirish va maqsad qo‘yish ko‘nikmalariga o‘rgatish.

Oltinchidan, o‘qituvchilarining yordami va yo‘nalish berishi. Mustaqil ta’lim jarayonida o‘qituvchilarining roli muhim hisoblanadi. O‘qituvchining talabalarga metodik ko‘rsatmalar berishi, yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatishi, motivatsiyani oshirishga xizmat qiluvchi sharoitlarni yaratishi talabalar mustaqil ishining samaradorligini oshiradi.

Bunda o‘qituvchining roli quyidagilarda ko‘rinadi:

- Talabalarga mustaqil ishning mohiyati va ahamiyatini tushuntirish;
- Ularning ishini baholash mezonlarini oldindan aniq belgilash;



- Har bir talabaning individual ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olgan holda maslahat berish.

Xulosa.

Mustaqil ta'limni samarali tashkil etish talabalarining nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish va ularning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limning ulushi oshirilayotgani talabalar tomonidan o'z bilim va ko'nikmalarini mustaqil rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda. Biroq, bu jarayonda talabalar va o'qituvchilar duch keladigan qator muammolar mavjud bo'lib, ularning samarali hal etilishi ta'lim sifati va natijadorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Mustaqil ta'limni samarali tashkil etish va uning natijadorligini oshirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, interaktiv o'qitish usullaridan foydalanish va akademik halollikni targ'ib qilish zarur. O'qituvchi va talaba o'rtaсидаги hamkorlik, shuningdek, o'quv jarayonini real hayot bilan bog'lash mustaqil ta'lim samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil ta'lim faqatgina talabalar uchun emas, balki ta'lim tizimi uchun ham muhim omil bo'lib, uning samarali tashkil etilishi mamlakatning intellektual salohiyatini oshirishga hamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Ш.И.Йўлдашев. Таалабаларнинг мустақил таълимининг замонавий ўкув жараёнида аҳамияти ва ўрни // Услубий қўлланма. — Т.: ЎзМУ, 2022. — 41 б.
2. Г.Н.Ибрагимова. Олий таълим тизимида интерфаол технологиялар воситасида таалабалардаги ижодий фикрлашни ривожлантириш // Замонавий таълим. 2017.№4. — Б. 30-35.
3. Н.Суюнов. Мустақил ишларни бажариш учун // Услубий кўрсатма. — Т.: 2019. — 116 б.
4. О.А.Қўйсинов, Н.А.Муслимов. Касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашда мустақил таълимни ташкил этишнинг назарияси ва методикаси. Монография. — Т.: “Фан”, 2009. — 92 б.

